



XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHI QARORI

210100, Navoiy sh., IslomKarimovsh.k 77 A, tel: (79) 229-62-80, e-mail: navoi@exat.uz, info@navoi.uz

2023 - yil 28 - dekabr

VI-66-128-5-0-K/23

Navoiy viloyati hokimligi

Navoiy viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budget kodeksining 99-moddasi, O'zbekiston Respublikaning 2023-yil 25-dekabdagi "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-sonli Qonuniga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabdagi 01/30-2-10347-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabdagi "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-sonli Qonuni ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" Qonuniga (keyingi o'rinlarda - Qonun deb ataladi) muvofiq, Navoiy viloyati viloyat mahalliy budjetining 2024-yil uchun budjet daromadlari 2 904,1 mlrd. so'm, xarajatlari 3 086,6 mlrd. so'm, respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 182,5 mlrd. so'm shundan, aksiz solig'i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag'lar 182,5 mlrd. so'm etib belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Navoiy viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va 2025-2026-yillarga maqsadli mo'ljallartkichlari prognozi mo'ljallari 1-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

2024-yil uchun viloyatning viloyat mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2- ilovaga muvofiq;

2024-yil uchun viloyatining viloyat budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari 3- ilovaga muvofiq;

2024-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari 4- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo'yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda Navoiy viloyati bo'yicha G'aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

5. 2024-yil uchun shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozlari 5- ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2024-yil uchun respublika budjetidan (aksiz solig'i tushumlari hisobidan) hamda viloyat budjetidan tuman va shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun viloyatning viloyat budjeti zahira jamg'armasi hajmlari 12,7 mlrd. so'm miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2024-yil uchun zahira jamg'armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Belgilab qo'yilsinki, Navoiy viloyati viloyat budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zahira jamg'armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

2024-yil uchun viloyatning viloyat mahalliy budjetlari aylanma kassa mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 6 645,5 mln. so'mni hamda

tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlari aylanma kassa mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

8. Qonun bilan 2024-yilda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

9. 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman (shahar) budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan, jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliqlardan tashqari);

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

b) viloyatning viloyat budjeti daromadlari viloyat mahalliy budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;

elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;

aylanmadan olinadigan soliq;

tamaki, alkohol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari), shuningdek mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i

bo'yicha tushumlar, tegishincha o'tgan moliya yilining 1 iyul holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan Navoiy viloyati aholisining soni tuman va shaharlar aholi soni ulushiga muvofiq shahar va tumanlar kesimida taqsimlanadi.

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi viloyat mahalliy budjetiga kelib tushadigan davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda viloyat mahalliy budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig'imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'imlarda, g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig'imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to'lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan, sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar va boshqa soliqsiz daromadlar;

viloyat va tuman hokimlarining qarorlari asosida sotiladigan davlat mulki ob'ektlarini sotishdan tushadigan mablag'lar tegishli ravishda ob'ekt joylashgan tuman (shahar) mahalliy budjetiga va viloyat budjetga teng ulushlarda taqsimlanadi.

v) quyidagilar:

qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

Navoiy shahar va Tomdi tumani mahalliy budjetlari daromadlarining xarajatlaridan yuqori bo'lganligini inobatga olib, Navoiy shahrida qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq viloyat budjetiga

olinsin. Tomdi tumanida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq viloyat va tuman budjetlari o'rtasida teng ulushlarda taqsimlansin;

g) Qonun bilan soliqlar viloyat budjetiga quyidagi ulushlarda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tashqari) Navoiy viloyatida 55 foiz;

foyda solig'idan tushgan tushumlarning (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to'lov manbaidan ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari) Navoiy viloyatida 61 foiz o'tkazilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

10. Qonunga muvofiq viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilingan 55 foiz miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushumlar (*jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan to'lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'idan tashqari*) viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o'rtasida Navoiy shahri 9 foiz, Zarafshon shahar 9 foiz, G'ozg'on shahar 30 foiz, Uchquduq tumani 10 foiz, Karmana tumani 10 foiz, Konimex tumani 10 foiz, Qiziltepa tumani 30 foiz, Navbahor tumani 30 foiz, Nurota tumani 30 foiz Tomdi tumani 10 foiz va Xatirchi tumanlariga 30 foiz hamda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig'idan tushumlar Zarafshon shahar, G'ozg'on shahar, Qiziltepa tumani, Navbahor tumani, Nurota tumani va Xatirchi tumanlariga 100 foiz, Uchquduq tumani va Karmana tumanlariga 50 foiz, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i Qiziltepa tumani, Navbahor tumani, Nurota tumani va Xatirchi tumanlariga 100 foiz, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq Tomdi tuman tumaniga 50 foiz hamda barcha shahar va tumanlarga 100 foiz, shuningdek noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq Navoiy shahridan tashqari barcha shahar va tumanlarga 100 foiz miqdorida budjetga taqsimlansin.

11. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (T.Atamurodov), iqtisodiyot va

moliya bosh boshqarmasi (G'.Boboqulov), soliq boshqarmasi (A.Botiraliyev) tuman (shahar) hokimliklari hamda mas'ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetining prognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

12. Viloyat soliq boshqarmasi (A.Botiraliyev)ga:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirilishini;

barcha soliq turlardan doimiy tahlillar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rilishini;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasi oshirilishini;

Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi bilan birgalikda viloyatda mavjud soliq to'lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to'liq hisoblanishini;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazorati o'rnatilishini hamda kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazilishini ta'minlash topshirilsin.

Bunda, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida

fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratsin.

13. Viloyat soliq boshqarmasi (A.Botiraliyev) Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi Navoiy mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo'yicha xatlovlar o'tkazish;

xatlov natijalari bo'yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirish ustidan doimiy nazorat o'rnatilsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan "marksheyderlik" xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo'yilsin.

14. Majburiy ijro byurosi Navoiy viloyat boshqarmasi viloyat soliq boshqarmasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko'rib borsin.

15. Tuman va shahar hokimliklari jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko'rsatsin.

16. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi (N.Atajanov) Bo'sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi (A.Sharipov) bilan birgalikda:

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo'yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko'ra viloyatda mavjud bo'sh turgan davlat mulki obyektlari ro'yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro'yxatga asosan bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo'yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo'ljallangan bo'sh turgan davlat mulki ob'ektlarini "e-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish choralarini ko'rsin.

17. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi (N.Atajanov), viloyat soliq boshqarmasi (A.Botiraliyev), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G'.Boboqulov) davlat korxonalarida hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan 2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlarni 2024-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o'tkazilishini ta'minlasin.

18. Monopoliyaga qarshi ko'rashish qo'mitasi Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi (A.Muhamadiyev) tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to'liq xatlovdan o'tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob'ektlari bo'yicha shartnomalar tuzish choralarini ko'rsin hamda ushbu shartnomalar bo'yicha yig'implarni budjetga to'lanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilsin.

19. Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (A.Ubaydullayev), viloyat soliq boshqarmasi (A.Botiraliyev) tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda viloyatda sug'orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to'liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to'liq undirib olish bo'yicha tizimli ishlarni olib borilishini ta'minlasin.

Bunda, qishoq xo'jaligi korxonalarida tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv soliqlari

bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilsin.

20. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Tasbayev), viloyat yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi hisoblangan boj, jarima va yig'implarni o'z vaqtida o'rnatilgan tartibda budjetga undirish choralari ko'rib borsin.

21. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (O.Rabbimov) viloyat maktabgacha va maktab ta'limi hamda sog'liqni saqlash boshqarmalarining ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

budjet intizomiga qat'iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo'yicha har chorak yakuni bilan xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot kiritib borsin.

O'tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo'yicha kamomad va noqonuniy o'zlashtirishga yo'l qo'ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilsin.

22. Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida budjet qonunchiligiga to'liq rioya etilgan holda Kengash qarori loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o'rnatishga, natijalari bo'yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishiga hamda ushbu mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul etib belgilansin.

23. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (T.Atamuradov), xalq deputatlari viloyati Kengashi kotibiyati, tuman va shahar hokimliklari, tegishli boshqarma boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo'yicha xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

24. Viloyat hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to'lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta'minlasin.

25. Mazkur qaror "Do'stlik bayrog'i" va "Znamya drujbi" gazetalarida rasmiy e'lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

26. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

27. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budgetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va viloyat hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



N.Tursunov

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrda
VI-66-128-5-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

**2024-yil uchun Navoiy viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy
ko'rsatkichlari prognozi va 2025-2026-yillarga maqsadli mo'ljallar**

T/R	Ko'rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz	Mo'ljal	
			2025-yil	2026-yil
1	Yalpi ichki mahsulot, mlrd so'mda	86,4	98,2	93,2
2	Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, foizda	105,8	106,0	106,2
3	Sanoat mahsulotlarining o'sish sura'ti, foizda	106,0	106,3	106,5
4	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sura'ti, foizda	103,9	103,9	103,9
5	Xizmatlar ko'rsatishning o'sish sur'ati, foizda	117,7	115,3	114,3

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrda
VI-66-128-5-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun viloyatning viloyat mahalliy budjeti daromadlari prognozi

ming so'm

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI:		2 235 432 532
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	112 165 580
2	Aylanmadan olinadigan soliq	89 827 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	973 329 560
4	Aksiz solig'i jami, (shu jumladan, - benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq)	180 324 000
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	350 729 500
6	Yuridik shaxslar yer solig'i	215 713 000
7	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	63 642 000
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	23 710 500
9	Davlat boji	73 004 000
10	Jarimalar	64 240 000
11	Ijara to'lovi	2 325 000
12	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	7 046 392
13	Yig'imlar	57 676 000
14	Boshqa tushumlar (xususiy lashtirish)	21 700 000

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrda
VI-66-128-5-0-K/23-son qaroriga
3-ilova

**2024-yil uchun viloyatining viloyat budjetidan birinchi darajali
budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning
cheklangan miqdorlari**

ming so'm

T/R	Ko'rsatkichlar	miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	2 235 432 532,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 113 856 099,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	169 384 100,0
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga transfertlar	952 192 333,0
1	Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi	133 095 204,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	133 095 204,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
2	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi	92 778 572,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	92 778 572,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
3	Sog'liqni saqlash boshqarmasi	438 418 055,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	438 418 055,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
4	Madaniyat boshqarmasi	33 071 159,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	33 071 159,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
5	Turizim va madaniy meros boshqarmasi	4 245 740,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	4 245 740,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
6	Yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi	71 137 295,0
	<i>shu jumladan:</i>	

T/R	Ko'rsatkichlar	miqdori
	joriy xarajatlar	71 137 295,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
7	Qishloq xo'jalik vazirligining hududiy bo'linmalarida yer tuzish va monitoring vazifalari yuklatilgan xodimlarni saqlash	1 507 831,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 507 831,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
8	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi	13 774 194,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	13 774 194,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
9	O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi	9 458 147,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	9 458 147,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
10	Suv xo'jaligi vazirligi tashkilotlari	37 282 007,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	25 182 007,0
	Sug'oriladigan yerlarni milirativ holatini yaxshilash	12 100 000,0
11	Davlat o'rmon va ov xo'jaligi tashkilotlari	23 862 220,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	23 862 220,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
12	Transport boshqarmasi	1 461 074,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 461 074,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
13	Ekologiya-atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tashkilotlari	11 298 749,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	11 298 749,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
14	Investitsiyalar bosh boshqarmasi	8 578 311,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	8 578 311,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

T/R	Ko'rsatkichlar	miqdori
15	Ko'p kvartirali uylardagi liftlarni ta'mirlash va yangilash xarajatlari	9 187 200,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	9 187 200,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
16	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi hamda hayvonlar kasalliklari tashhisi va oziq-ovqat xavfsizligi davlat markazi	8 433 643,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	8 433 643,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
17	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	1 491 372,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 491 372,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
18	Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash agentligi	1 387 237,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 387 237,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
19	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi	4 371 285,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	4 371 285,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
20	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi	15 257 797,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	15 257 797,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
21	Adliya boshqarmasi	7 207 026,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	7 207 026,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
22	Investitsiya dasturlarini moliyalashtirish xarajatlari	169 384 100,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	169 384 100,0
	<i>shundan:</i>	

T/R	Ko'rsatkichlar	miqdori
	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish	10 878 500,0
	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumta'lim maktablarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash	129 500 000,0
	Sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash	24 893 400,0
	Melioratsiya ob'ektlari	4 112 200,0
23	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	10 791 411,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	6 981 411,0
	<i>shundan: saqlash xarajatlariga</i>	
	Fuqarolarga yetkazilgan zararni qoplash	2 310 000,0
	Advokatlar ko'rsatgan yuridik xizmat	1 500 000,0
24	G'aznachilik xizmati boshqarmasi	8 695 129,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	8 695 129,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
25	Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmasi	8 150 344,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	8 150 344,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
26	Chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurashish xizmati	2 291 231,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 291 231,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
27	Issiqlik ta'minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	3 993 000,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 993 000,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
28	Issiqlik ta'minot korxonalariga subsidiyalar	60 101 500,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	60 101 500,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
29	Hokimlik	34 921 817,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	34 921 817,0
	Hokimlikni saqlash xarajatlari	8 277 885,0
	Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	8 035 258,0
	Xalk deputatlari Kengashi kotibiyati	556 734,0
	Hokimliklarning zahira jamg'armalari	12 705 348,0
	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi	3 793 819,0

T/R	Ko'rsatkichlar	miqdori
	Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o'quv kursi	419 148,0
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo'limlari	1 133 624,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
30	Saylov komissiyalari xarajatlari	87 208,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	87 208,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
31	Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish hududiy bo'limi	288 779,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	288 779,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
32	Soliq boshqarmasi	18 401 013,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	18 401 013,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
33	Monopoliyaga qarshi kurashish boshqarmasi	1 475 061,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 475 061,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
34	FXDYo bo'limlari	1 895 050,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 895 050,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
35	Oila va xotin qizlar boshqarmasi	1 136 159,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 136 159,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
36	Yoshlar ishlari agentligi boshqarmasi	3 532 793,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 532 793,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
37	Nodavlat-notijorat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi	3 836 795,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 836 795,0

T/R	Ko'rsatkichlar	miqdori
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
38	Agrosanoat majmui ustidan nazorat kilish inspeksiyasi Navoiy viloyati boshqarmasi	5 790 750,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	5 790 750,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
39	Arxiv ishlari boshqarmasi	4 236 520,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	4 236 520,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
40	Kadastr boshqarmasi	2 232 479,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 232 479,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
41	Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi	2 968 005,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 968 005,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
42	Kinomatografiya agentligi Navoiy viloyati hududiy bo'limi	262 349,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	262 349,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
43	Soliq boshqarmasi huzuridagi sud boshqaruvchilarini saqlash	1 204 558,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 204 558,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
44	Norentabel avtobus yo'nalishlari subsidiyalash	1 076 400,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 076 400,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
45	Boshqa tashkilotlar	9 183 631,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	9 183 631,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrda
VI-66-128-5-0-K/23-son qaroriga
4-ilova

2024-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari

Foiz hisobida

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslar yer solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Noruda qurilish material-lari uchun yer qa'ridan foydalan-ganlik uchun soliq
1	Navoiy shahri	0	0	9	100	0
2	Zarafshon shahri	100	0	9	100	100
3	G'ozg'on shahri	100	0	30	100	100
4	Uchquduq tumani	50	0	10	100	100
5	Karmana tumani	50	0	10	100*	100
6	Konimex tumani	0	0	10	100	100
7	Qiziltepa tumani	100	100	30	100	100
8	Navbahor tumani	100	100	30	100	100
9	Nurota tumani	100	100	30	100	100
10	Tomdi tumani	0	0	10	50	100
11	Xatirchi tumani	100	100	30	100	100

*Karmana tumani hududida joylashgan elektr stansiyasi tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq viloyat budjetiga to'liq o'tkaziladi.

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrda
VI-66-128-5-0-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024-yil uchun shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozlari

ming soʻmda

Hududlar nomi		Daromad	Xarajat
JAMI:		668 683 140	1 803 377 085
1	Navoiy shahar	139 459 440	224 078 516
2	Zarafshon shahar	71 427 300	207 769 506
3	Gʻozgʻon shahar	3 382 000	37 772 067
4	Uchquduq tuman	57 612 200	132 923 441
5	Karmana tuman	89 948 000	175 806 829
6	Konimex tuman	26 216 200	127 080 858
7	Qiziltepa tuman	83 494 000	233 666 705
8	Navbahor tuman	49 436 000	195 091 601
9	Nurota tuman	37 905 200	159 720 896
10	Tomdi tuman	32 574 100	64 896 317
11	Xatirchi tuman	77 228 700	244 570 349

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrda
VI-66-128-5-0-K/23-son qaroriga
6-ilova

**2024-yil uchun respublika budjetidan (aksiz solig‘i tushumlari hisobidan)
hamda viloyat budjetidan tuman va shahar mahalliy budjetlariga
ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari**

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	Jami ajratiladigan transfert miqdori	Shu jumladan,	
		Viloyat budjetidan ajratiladigan transfert miqdori	Respublika budjetidan transfert miqdori (aksiz solig‘i tushumlari hisobidan*)
JAMI:	1 134 693 945	952 192 333	182 501 612
1 Navoiy shahri	84 619 076	57 467 104	27 151 972
2 Zarafshon shahri	136 342 206	121 381 940	14 960 266
3 G‘ozg‘on shahri	34 390 067	32 816 915	1 573 152
4 Uchquduq tumani	75 311 241	68 567 403	6 743 838
5 Karmana tumani	85 858 829	62 347 050	23 511 779
6 Konimex tumani	100 864 658	94 444 770	6 419 888
7 Qiziltepa tumani	150 172 705	122 696 441	27 476 264
8 Navbahor tumani	145 655 601	125 122 409	20 533 192
9 Nurota tumani	121 815 696	106 608 056	15 207 640
10 Tomdi tumani	32 322 217	29 626 635	2 695 582
11 Xatirchi tumani	167 341 649	131 113 610	36 228 039

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrda
VI-66-128-5-0-K/23-son qaroriga
7-ilova

**2024-yil uchun tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlari aylanma kassa
mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori**

ming so'mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI:	6 854 457
1	Navoiy shahri	1 115 369
2	Zarafshon shahri	925 027
3	G'ozg'on shahri	83 181
4	Uchquduq tumani	593 720
5	Karmana tumani	770 663
6	Konimex tumani	347 749
7	Qiziltepa tumani	913 788
8	Navbahor tumani	711 361
9	Nurota tumani	436 704
10	Tomdi tumani	240 813
11	Xatirchi tumani	716 082